



«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

A.XODJAYEV

«14» 02 2017 y.

**«O'zbekiston Respublikasining chet eldagi vakolatxonalarida doimiy konsullik ro'yxatida turadigan fuqarolarga biometric pasportni rasmiylashtirish, almashtirish va berish» davlat xizmati reglamenti**

**1. Xizmat tavsifi (pasporti)**

**1.1. Xizmat nomi**

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi vakolatxonalarida doimiy konsullik ro'yxatida turadigan fuqarolarga biometrik pasportni rasmiylashtirish, almashtirish va berish.

**1.2. Xizmat natijasi**

Biometrik pasportlarni rasmiylashtirish, almashtirish va berish O'zbekiston Respublikasining chet eldagi vakolatxonalarida konsullik ro'yxatida turadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan amalga oshiriladi.

**1.3. Xizmatko'rsatadigan organlar va blanklar olish joylari**

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi Elchixonalari hamda Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda.

Biometrik pasport olish uchun ariza O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi chet eldagi elchixonalar va xorijiy mamlakatlarda diplomatik muassasalaridan hamda ularning rasmiy veb-sahifalardan olishingiz mumkin.

**1.4. Huquqiy asos**

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida passport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4262-son Farmoni;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometric pasportini va 16 yoshga to'lmagan shaxslar uchun fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning harakatlanish hujjati berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 200-son Qarori.

**1.5. Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar**

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi vakolatxonalarida konsullik ruyhatida turadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

**1.6. Murojaat etish muddati**

*O'zbekiston Respublikasi hududida pasport o'rnatilgan tartibda malumotlarni yig'ish punktida DPMga yuborilgandan so'ng 10 ish kuni ichida, chetelda 15 ish kuni ichida beriladi. Yo'qotilgan hollarda pasport bir oy ichida ariza topshirilgan kunda boshlab beriladi*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24 dekabr 2013 yildagi PP-2095-son qaroriga muvofiq.*

#### 1.7. Bajarish muddati

*1 oy ichida.*

#### 1.8. Tasdiqni berish muddati

*Murojaat kuni davomida*

### **2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish**

#### 2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Har bir murojaat qilgan fuqaroga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi kafolatlanadi:

- Xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotning manzili, ish tartibi, murojaat qiluvchilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan qabulga yozilish, qabul qilingan kunda hujjatlashtirish tartibi, jonli navbat va boshqalar);
- hizmatdan foydalanish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ruyhati;
- Tartibi va qanday to'ldirish zarur shakllar olish uchun, to'lov tartibi;
- Xizmatlarni olish uchun ishlab chikish;
- Xizmat muddati;
- Qoidalar bilan tanishib qoidalar va xizmatlar yo'llarini mavjudligi

#### 2.2. Keng xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasining cheteldagi vakolatxonalarida konsullik ro'yhatida turadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga biometric passport rasmiylashtirish, almashtirish va berish tartibi tegishli elchihonalar, shuningdek Tashqi ishlar vazirligidan bevosita hamda ularning rasmiy veb-sahifalari orqali olish mumkin.

#### 2.3. Murojaat orqali ma'lumot

Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasida fuqarolarni qabul vaqti 10 00 dan 12 00 gacha dam olish va bayram kunlaridan tashqari  
Faks orqali: tunu-kun yozma murojaatlarin qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni murojaatga binoan jo'natish (3 betdan ortiq emas);  
Elektron pochta orqali: tunu-kun istalgan yozma murojaatlarni matnning keng tarqalgan formatlar yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida yozma murojaatlarin qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha oddiy matn formatidagi yozma hujjatlarni yoki ilova qilingan fayl yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida, ushbu standartning jo'natishga tayyor bo'lgan fayllar, kerakli balanklar, manzilga borish sxemasi mavjudligi

#### 2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish



## 2.5. Ishlatiladigan hujjatlar blanklari

*Blanklar tegishli elchihonalar, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligidan bevosita hamda ularning rasmiy veb-sahifalari orqali olish mumkin*

## 3. Xizmat ko'rsatish

### 3.1. Ish vaqti

*Ish vaqti 10-00 dan 12-00. Dam olish va bayram kunlaridan tashqari.*

## 4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

### 4.1. Kerakli hujjatlar

a) doimiy konsullik ro'yxatiga olingan fuqaro uchun:

1. belgilangan shakldagi pasport rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza;

2. ilgari berilgan pasport va uning nusxasi;

3. 35 x 45 mm o'lchamdagi fotosurat;

4. xorijga doimiy yashashga chiqish varaqasi (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (keyingi o'rinlarda – MDH)

mamlakatlarida yashaydigan fuqarolar uchun) yoki XChKvaFRB bo'linmalari tomonidan rasmiylashtirilgan «Doimiy yashashga ketishga ruxsat berildi» ruxsatnoma yozuvi stikeri. Ushbu xujjat pasportda doimiy konsullik ro'yxatiga olinganlik to'g'risida ma'lumot mavjud hollarda talab qilinmaydi;

5. fuqaro xorijiy davlat xududida mazkur davlat qonunlariga muvofiq yashayotganligini tasdiqlovchi xujjat (viza, doimiy yashash uchun ruxsatnoma, vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma, pasportdagi tegishli yozuv, ma'lumotnoma va h.k.);

6. konsullik yig'imi va xizmat xarajatlarini to'langanligi haqida kvitansiya.

b) ota-onasi bilan doimiy konsullik ro'yxatiga olingan voyaga etmagan fuqaro uchun:

1. belgilangan shakldagi pasport rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza;

2. tug'ilganlik haqidagi guvohnoma asl nusxasi (16 yoshgacha bo'lgan fuqaro uchun yoki birinchi marta pasport rasmiylashtirilayotganda) yoki pasport (mavjud hollarda) va ularning nusxalari;

3. 35 x 45 mm o'lchamdagi fotosurat;

4. ota-onasi pasportlarining asl nusxasi birinchi marta pasport rasmiylashtirish uchun va ularning nusxalari. Ota-onasidan birining pasportini taqdim etish imkoniyati yo'q hollarda, ushbu holatni izohlovchi xujjat taqdim qilinadi, jumladan, o'lim haqida guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi haqida guvohnoma, yoki nikoh bekor qilinganligi haqidagi sud qarorining ko'chirmasi (nusxasi) yoxud nikohning haqiqiy emas deb tan olinganligi haqidagi sud qarorining ko'chirmasi (nusxasi), vakolatli idoralarning pasport oluvchining ota onasidan birini bedarak yo'qolganligi yoki vafot etganligini tan olish to'g'risidagi ma'lumotnomasi, farzandni yolg'iz ota yoki ona tomonidan ta'biyalanganligini tasdiqlovchi xujjatlar yoki xorijiy davlat qonunchiligida ko'rsatilgan ushbu mazmunga teng xujjat. Agar fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, ota-onasidan biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib, shu vaqtning o'zida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan bo'lsa bunday hollarda xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan ota-onasidan birining O'zbekiston fuqarosi pasportini olishga yozma roziligi talab qilinadi;

arizachining ma'lumotlari kiritilgan xorijga doimiy yashashga chiqish varaqasi yoki uning nusxasi (MDH mamlakatlarida yashaydigan fuqarolar uchun) yoki XChKvaFRB bo'linmalari tomonidan rasmiylashtirilgan «Doimiy yashashga ketishga ruxsat berildi» ruxsatnoma yozuvi stikeri (ushbu

xujjat pasportda doimiy konsullik ro'yxatiga olinganlik to'g'risida ma'lumot mavjud hollarda talab qilinmaydi);

fuqaro xorijiy davlat xududida mazkur davlat qonunlariga muvofiq yashayotganligini tasdiqlovchi xujjat (viza, doimiy yashash uchun ruxsatnoma, vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma, pasportdagi tegishli yozuv, ma'lumotnoma va h.k.);

ota-onasidan biri xorijiy davlat fuqarosi bo'lsa, uning farzandini O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini olishga e'tirozi yo'qligi haqida notarial tasdiqlangan arizasi;

konsullik yig'imi va xizmat xarajatlarini to'langanligi haqida kvitansiya.

c) vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olingan fuqaro uchun:

mazkur toifadagi fuqaroga pasport mamlakatga qonuniy tarzda va olti oydan ortiq muddatga xizmat safariga, o'qish, davolanish va shartnoma bo'yicha ishlashga chiqqan va xorijga vaqtincha chiqishni belgilangan tartibda rasmiylashtirgan taqdirda almashtiriladi.

Vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olinmagan vaqtincha xorijda bo'lgan fuqaro O'zbekiston Respublikasiga qaytish guvohnomasini olish uchun tegishli konsullik muassasasiga murojaat etadi.

belgilangan shakldagi pasport rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza;

xizmat safariga, o'qish, davolanish va shartnoma bo'yicha ishlashga chiqqanlikni tasdiqlovchi xujjat;

pasport va uning nusxasi;

35 x 45 mm o'lchamdagi fotosurat;

ta'lim muassasasidan (ta'lim olish muddatlari ko'rsatilgan va tarjima qilingan holda) yoki ish joyidan (shartnoma tarjima qilingan holda) ma'lumotnoma;

fuqaro xorijiy davlat xududida qonuniy yashayotganligini tasdiqlovchi xujjat (viza, ma'lumotnoma, migratsion karta MDH mamlakatlari uchun va h.k.);

konsullik yig'imi va xizmat xarajatlarini to'langanligi haqida kvitansiya.

d) ota-onasi bilan vaqtinchalik konsullik ro'yxatiga olingan voyaga etmagan fuqaro uchun:

mazkur toifadagi fuqaro uchun pasport quyidagi hollarda rasmiylashtiriladi: ota-onasi farzandi bilan olti oydan ortiq muddatga xizmat safariga, o'qish, davolanish va shartnoma bo'yicha ishlashga chiqqan va xorijga vaqtincha chiqishlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan taqdirda; agar farzand ota-onasi mazkur xorijiy davlatga chiqqanidan keyin to'g'ilgan bo'lsa;

belgilangan shakldagi pasport rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza;

ota-onasining xizmat safariga, o'qish, davolanish va shartnoma bo'yicha ishlashga chiqqanligini tasdiqlovchi xujjat:

tug'ilganlik haqidagi guvohnoma asl nusxasi (16 yoshgacha bo'lgan fuqaro uchun yoki birinchi marta pasport rasmiylashtirilayotganda) yoki pasport (mavjud hollarda) va ularning nusxalari;

35 x 45 mm o'lchamdagi fotosurat;

ota-onasi pasportlarining asl nusxasi birinchi marta pasport rasmiylashtirish uchun va ularning nusxalari. Ota-onasidan birining pasportini taqdim etish imkoniyati yo'q hollarda, ushbu holatni izoxlovchi xujjat taqdim qilinadi, jumladan, o'lim haqida guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi haqida guvohnoma, yoki nikoh bekor qilinganligi haqidagi sud qarorining ko'chirmasi (nusxasi) yoxud nikohning haqiqiy emas deb tan olinganligi haqidagi sud qarorining ko'chirmasi (nusxasi), vakolatli idoralarning pasport oluvchining ota-onasidan birini bedarak yo'qolganligi yoki vafot etganligini tan olish to'g'risidagi ma'lumotnomasi, farzandni yolg'iz ota yoki ona tomonidan tarbiyalanganligini tasdiqlovchi xujjatlar yoki xorijiy davlat qonunchiligida ko'rsatilgan ushbu mazmunga teng xujjat.

1. Agar fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsayu, ota-onasidan biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib, shu vaqtning o'zida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan bo'lsa bunday hollarda xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan ota-onasidan birining O'zbekiston fuqarosi pasportini olishga yozma roziligi talab qilinadi;

2. fuqaro ota-onasining xorijiy davlat xududida mazkur davlat qonunlariga muvofiq yashayotganligini tasdiqlovchi xujjat (viza, ma'lumotnoma, migratsion karta MDH mamlakatlari uchun, pasportdagi tegishli yozuv va h.k.);

3. konsullik yig'imi va xizmat xarajatlarini to'langanligi haqida kvitansiya.

#### 4.2. Xizmatga to'lov



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24 dekabr 2013 yildagi PP-2095-son qaroriga muvofiq, konsullik to'lovlar quyidagicha undiriladi:

a) chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi biometrik pasportini va fuqaroligi yo'q shaxsning harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish uchun – 50 AQSH dollari;

bundan tashqari xizmat xarajatlari yig'imi undiriladi:

b) pasportini va fuqaroligi yo'q shaxsning harakatlanish hujjatini rasmiylashtirish uchun o'z vaqtida murojaat qilmaganlik uchun – 50 AQSH dollari;

c) pasportini va fuqaroligi yo'q shaxsning harakatlanish hujjatini chet elda yo'qotganligi uchun – 70 AQSH dollari.

#### 4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

*Davlat xizmatini ko'rsatish bosqichlari ilovada ko'rsatilgan.*

#### 4.4. Idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari

*Fuqaroning biografik ma'lumotlarini va biometric parametrlarini jamlangandan so'ng, ushbu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markaziga yuboriladi. DPM o'z navbatida tayyor pasportni Tashqi ishlar vaziligiga taqdim qilida. Biometrik pasportlarni O'zbekiston Respublikasining chet el vakolatxonalariga jo'natish diplomatik pochta orqali amalga oshiriladi.*

#### 4.5. Rad qilish asosi

*Sor'algan hujjatlarning yuqligi, xizmatga murojaatning to'g'ri kelmasligi.*

### 5. Sifatni ta'minlash

#### 5.1. Sifat parametrlari

*Talablarga mos kelmaydigan pasportlar bekor qilinadi*

#### 5.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmat ustidan shikoyat qilish

*Sifatsiz ko'rsatilgan xizmat ustidan arizachi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yozma va og'zaki ravishda murojaat qilishi mumkin.*

«KIRITILGAN»

O'zbekiston Respublikasi

Tashqi ishlar vazirligi  
Konsullik boshqarmasi boshlig'i

A.SAXIBOV

2017y.




«KELISHILGAN»


O'zbekiston Respublikasi  
Axborot texnologiyalari  
va kommunikasiyalarini  
rivojlantirish vazirligi

«        »        2017y.

Davlat xizmati ko'rsatishda idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari namunasi



xujjatlarni topshirish (qabul bulimi)	Kvadrat (to'g'ri burchak) – harakatni ko'rsatuvchi element. Elementning ichida harakatning nomi va joyi yoziladi
malumotno ma	Doira (oval) – taqdim qilinayotgan xizmat ob'ekti (hujjat) elementi
malumotno ma	Ko'rsatkich – harakatlar ketma-ketligini ko'rsatuvchi element.



		Kvadrat (to'g'ri burchak) – harakatni ko'rsatuvchi element. Elementning ichida harakatning nomi va joyi yoziladi
		Doira (oval) – taqdim qilinayotgan xizmat ob'ekti (hujjat) elementi
		Ko'rsatkich – harakatlar ketma-ketligini ko'rsatuvchi element.